UO'K: 82-1/29

ORZU URGANJIY QIT'ALARINING BADIIY-G'OYAVIY XUSUSIYATLARI

Ibragimov Azizbek,
UrDU O'zbek filologiyasi fakulteti 213-guruh talabasi

ПОЭТИЧЕСКИЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ «КИТЪЫ» ОРЗУ УРГАНДЖИ

Ибрагимов Азизбек, студент 213 группы факультета Узбекской филологии УрГУ

POETIC AND IDEOLOGICAL FEATURES OF "KITYA" OF ORZU URGANJI

Ibragimov Azizbek, student of group 213 of the Faculty of Uzbek Philology, UrSU

ibragimovazizbek@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada XX asrda yashab, ijod qilgan shoir Orzu Urganjiyning qit'alari tadqiq ostiga olingan. Ulardagi mavzu, g'oya, badiiyat masalalariga alohida berilib, atroflicha tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *An'ana, janr, g'azal, didaktika, ishqiy mavzu, she'riy shakl, bayt, she'riy san'atlar, qofiya, badiiyat.*

Аннотация: *В статье изучены произведения поэта Орзу Урганджи, жившего и писавшего стихи в XX веке. Темы, идеи, художественные проблемы в них даны отдельно и тщательно проанализированы.*

Ключевые слова: *Традиция, жанр, газель, дидактика, романтическая тема, поэтическая форма, стих, поэтическое искусство, рифма, искусство.*

Abstract: *In the article the works of the poet Orzu Urganji, who lived and wrote poetry in the twentieth century are learned. Themes, ideas, artistic problems in them are given separately and carefully analyzed.*

Keywords: *Tradition, genre, ghazal, didactics, romantic theme, poetic form, verse, poetic art, rhyme, art.*

Kirish. XX asrda Xorazm adabiy muhitida yashab, ijod qilgan, lekin tarix qatlarida qolib, yetarlicha tanilib ulgurmagan shoirlar ko'p. Bugungi kunning eng keyingi tadqiqotlari aynan ularning ijodini kashf etish, adabiyot xazinamizdagi yangi qo'riqlarni ochish va nodir she'riy va nasriy namunalarni xalqimizga taqdim etishga qaratilgan va olimlar bu borada chuqur izlanishlar olib bormoqdalar. Biz bugun diqqatimizni qaratgan Orzu Urganjiy ham ana shunday kamtar ijodkorlardan biri. Uning she'rlari ma'lum bir devon tarzida yetib kelmagan, yaqinlari, oilasi va do'stlari qo'lida saqlanib qolgan asarlari yordamida o'rganilmoqda. Urganjiyning hayot yo'li og'ir kechgan, salkam 90 yil umri davomida butunboshli asr g'avg'olarini his qilib yashagan, kolxozda ter to'kkan, urush yillarida front ortida mehnat qilgan, qatag'on siyosati tufayli qamalgan, umrining so'nggi yillarida nafaqaga chiqib, ijod bilan shug'ullangan. Orzuning ijodiy merosi 123 ta she'rdan iborat va mavzu jihatdan ularning asosiy qismi pand-nasihatga bag'ishlanadi. Urganjiy lirikasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, janr jihatidan xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lamiz: g'azal, qit'a, fard, muxammas, musaddas, muvashshah, ruboiy, masnaviy va boshqalar. Biz ushbu tadqiqotimizda shoir qit'alarining badiiy va g'oyaviy jihatlariga e'tibor qaratdik.

Asosiy qism. Qit'a janri turkiy adabiyotga fors adabiyotshunosligi natijasida kirib kelgan. Bu atamaning izohiga e'tibor qaratsak, bu borada adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqov shunday fikr bildiradi: «Qit'a —arabcha «bir narsaning bo'lagi, parchasi», mumtoz she'riyat janrlaridan biri. Qit'ada qasida va g'azaldagi singari qofiyadosh matla' bo'lmaydi, faqat baytlarning ikkinchi misralari

qofiyalanadi (ab, vb, gb, db). Bu janr matla'si tushib qolgan g'azal parchasiga o'xshab ketganligi uchun qit'a nomini olgan. Aslida qit'a mustaqil she'r shakli bo'lib, tugal mazmun va o'ziga xos uslubga ega»[2, 273]. Qit'aning janr sifatidagi kamoli Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq. Forsiy adabiyotda paydo bo'lib, o'z rivojini topgan qit'a janrida turkiy adabiyotda birinchilardan bo'lib Hofiz Xorazmiy ham yetarlicha qalam tebratgan bo'lsa-da, aynan adabiy qoidalarga jiddiy e'tibor qaratib, sermahsul ijod qilgani uchun Navoiy hazratlari e'tirof etiladi. Navoiydan keyingi davrlarda mukammal qit'a namunalarini Ogahiy, Munis, Avaz O'tarlar ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Eng so'nggi davr qit'anavisi sifatida esa Orzu Urganjiy qit'alarini tahlilga tortdik. Bizda mavjud bo'lgan «Hikmatlar gulistoni» to'plamida Orzuning 19 ta qit'asi berib o'tilgan. Diqqatimizni tortgan asosiy xususiyatlardan biri qit'alarning qofiyalanish tizimi bo'ldi. To'plamda berilgan qit'alardan bor-yo'g'i 5 tasi qit'a yozish qoidasiga muvofiq ab-vb tarzida qofiyalangan. Qolgan barcha qit'alarda aa-ba shaklini ko'rishimiz mumkin. Qit'alarning barchasi ikki baytdan iborat, g'azalga o'xshab qofiyalangan bo'lsa-da, hajman kichik bo'lgani uchun muallif ularni qit'a deya nomlaganligi ehtimoldan xoli emas. Quyidagi qit'ani tahlilga tortamiz:

Ahli hikmatda masal bor o'tgan ayyomi bila, (a)
Barchaga ma'lumdurkum subh ham shomi bila. (a)

Biri odil, biri zolim nomi hargiz o'chmagay, (b)
Biri yaxshi xislat ila, biri badnomi bila. [1,63] (a)

Qit'adan «barchaga kun va tunday ayon bir hikmat bor: ikki xil insonning nomi dillardan o'chmaydi, yaxshi odam o'zining go'zal amallari bilan, zolim esa yomonliklari bilan nom qoldiradi», degan ma'noni uqamiz. Qofiyaga ayyomi-shomi-badnomi so'zlari olingan va ulardagi **«m»** harfi raviy («arabcha «rivo» so'zidan olingan» [4, 195] qofiyada tirgak tovush) bo'lib kelgan. «Bila» so'zi esa radif - «qofiyadan so'ng kelib, aynan takrorlanuvchi so'z yoki so'zlar birikmasi» [4,236] sifatida qo'llanilgan. Bu kabi qofiyalangan qit'alar soni ko'pchilikni tashkil etadi va bu Orzu Urganjiyning qit'a yozishdagi o'ziga xosligi deya belgilansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qit'alarning vazni ham alohida tadqiq obyekti va diqqatga sazovor. To'plamda berilgan 19 ta qit'aning asosiy qismi - 15tasi **ramali musammani mahzuf** vaznida yozilgan, namuna sifatida quyidagi baytni tahlil qilamiz:

Gar taom ye/sa, eshikni/ bekitib ah/li xasis,
– V – – / – V – – / – V – – / – V –
fo i lo tun / fo i lo tun /fo i lo tun / fo i lun

Tushsa boshi/ga havodis,/ kimsa holin/ so'rmadi [1,63].
– V – – / – V – – / – V – – / – V –
fo i lo tun / fo i lo tun /fo i lo tun / fo i lun

Satistika bo'yicha, keyingi o'rinda hazaj bahri tarmoqlarida yozilgan qit'alar turadi:

Hazaji musaddasi mahzuf.

Xo'roz lochin/ erur arslon/ safinda,
V – – – / V – – – / V – –
ma fo iy lun/mafoiylun/ fa uv lun

Mushuk arslon/ erur sichqon/ tutishda. [1,65]
V – – – / V – – – / V – –
ma fo iy lun/ ma fo iy lun / fa uv lun

Hazaji musammani solim.

Muzayyan bo'l/sa qalbing ma'/ rifat aro/ ishi birla,
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
ma fo iy lun / ma fo iy lun / ma fo iy lun / ma fo iy lun

Sanga andin/ne boq egning/da doim es/ ki shol bo'lsa. [1,65]
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
ma fo iy lun / ma fo iy lun / ma fo iy lun / ma fo iy lun

Tahlillar davomida yana shuning guvohi bo'ldikki, qit'alar orasida barmoq vaznida yozilgan to'rtlik ham uchraydi:

Qo'ylarga bo'ri xaylini cho'pon etma,
El ichra dog'i o'g'rini posbon etma.
Ul belgi sut birla kirib edi anga,
Jon birla chiqar, o'zgarish imkon etma. [1,65]

Bu to'rtlik tuzuvchi tomonidan qit'a sifatida kiritilgan, degan fikrga keldik.

Qit'alar janr sifatida g'azal va qasidadan ancha oldin paydo bo'lgan va shakllangan. Har bir qit'a yaxlit asar bo'lib, biron mavzuga bag'ishlanadi. Boshqa lirik janrlarga nisbatan qit'ada shakl va mazmun erkinligi ustun, mavzu doirasi ham keng. Unda ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy va boshqa mazmundagi fikrlar hajv va hazil-mutoyiba tarzida, shoir hayotining turli

TAMADDUN NURI

lahzalari bilan bog‘liq qayd va mulohazalar sifatida o‘z ifodasini topishi mumkin. Ammo qit’a janri mavzu jihatdan uzoq yillar davomida pand-nasihatga, axloqiy-ta’limiy qarashlarga xoslana bordi. Buning yorqin namunasi sifatida Alisher Navoiy qit’alarini misol keltirishimiz mumkin. Navoiy qit’alarining o‘ziga xosligi pand-nasihatning ustunligidan tashqari har bir qit’aga sarlavha qo‘yilganligida ham ko‘rinadi. Bunday hol fors mumtoz adabiyoti vakili Anvariy ijodida ham uchraydi. Orzu Urganjiy qit’alarida sarlavhalarni uchratmaymiz, lekin ularda an’anaga muvofiq didaktika ustunlik qiladi. Ko‘pni ko‘rgan shoir Urganjiy o‘zining hayot tajribalari va o‘gitlarini nafaqat g‘azallarida, balki qit’alarida ham o‘ziga xos ixcham tarzda ifodalay olgan. Ikki baytli qit’alarda Navoiyona uslub yaqqol ko‘rinadi. Alisher Navoiy qit’alarida ham bir baytdagi hikmat keyingi baytda misollar yordamida izohlansa, Urganjiyda ham bu holni ko‘rishimiz mumkin:

Ahli komil bo‘lsa harkim, bir ibratli so‘z yetar,
Befahmga yuz iborat xayf, behuda ketar.
Sho‘r yerga qilmagil zoye amalning tuxmini,
Tuxmi rayhon sepsang, aning o‘rniga jangal bitar.
[1,63].

Birinchi baytda berilgan hikmat: komil insonga tushunishi uchun bir og‘iz so‘z yetadi, nodonga esa yuz ibora aytsang ham, aqliga yetib bormaydi, ta’ni anglamaydi. Ikkinchi baytda shoir buni go‘zal va tabiiy o‘xshatish bilan izohlaydi: sho‘r yerga ming mashaqqat bilan rayhon eksang ham, baribir jangal-dan boshqasi bitmaydi. Rayhonning xushbo‘y o‘simlik ekanini, o‘zi bor joyda dilni yayratishini hamma biladi. Jangal o‘simligi esa buning teskarisi. Bu o‘simlik ilmiy tilda «ching‘il» deb nomlanadi. Ching‘il o‘simligi tabiiy holda ariq yoqalarida, to‘qaylarda o‘sadi. Chidamliligi va bexorligi tufayli har qanday yerga moslasha oladi, sho‘r yerlarga, cho‘llarga qum ko‘chishini oldini olish uchun ekiladi. Demak, mo‘ysafid shoir Urganjiy haqiqatga ayni yaqin o‘xshatishlarni qo‘llab, tamsil san’atidan foydalangan. Bu kabi original fikrlardan tashqari shoirning an’anaviy fikrlardan o‘zgacha foydalanganiga ham guvoh bo‘lamiz:

Har kishi sanga birovning aybin izhor aylagay,
Sani ham shul kun anga aybingni bisyor aylagay.
Solma g‘iybatkash so‘ziga oqil ersang hech quloq,
Do‘stlaringni dushman aylab, g‘amga duchor aylagay [1,63]

Bu qit’adagi mazmun Alisher Navoiyning quyidagi fardini eslatadi:

Ulki, sanga eldin erur aybgo‘,
Elga dog‘i sendin o‘lur aybjo‘. [6, 742]

Darhaqiqat, senga birovlarning aybini aytadigan inson boshqalarga ham sening xatolaringni yoyishdan or qilmaydi. Urganjiy lirikasida an’analarga sodiqlik va yangiliklardan qochmaslik xususiyatlari umumlashib, go‘zal shaklda qalblarga yetib boradigan hikmatlar yuzaga kelgan. Mavzu jihatidan pandnoma bo‘lgan qit’alar ham o‘quvchini bezdirmaydi, aksincha, munosib ibrat ko‘rsata oladi.

Xulosa. Orzu Urganjiy qit’alarini o‘rganish davomida quyidagi xulosalarga keldik:

— Qit’alar qofiyalanish jihatidan janr talabiga biroz zid: aa-ba tarzida qofilayangan qit’alar to‘plamda yetakchilik qiladi;
— Vazn jihatidan ramal bahri ustunlik qiladi, lekin hazaj bahri istifodasini ham ko‘rishimiz mumkin:
— Mavzu jihatidan axloqiy-ta’limiy, ya’ni didaktik ruhdagi qit’alar shoir uslubini ko‘rsatib bergan;
— Barmoq vaznida yozilgan to‘rtlik ham to‘plamga qit’a sifatida kiritilgan;
— Qit’alar vaznida ayrim juz’iy kamchiliklar ham uchraydi.

Urganjiy ijodi o‘zining badiiy ahamiyati bilan zamondosh shoirlar ijodiiy merosidan qolishmaydi. Yuqorida qit’alar misolida ham buning guvohi bo‘ldik. Uni chuqur o‘rganish va tanitish adabiyotimiz uchun muhim kashfiyotlardan biri bo‘lishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orzu. Hikmatlar gulistoni.– Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi , 2015.
2. Y.Is’hoqov. So‘z san’ati so‘zligi.— Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
3. R. Orzibekov. Lirikada kichik janrlar. — Toshkent, 1976.
4. A. Hojiahmedov. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
5. N. Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Sano standart”, 2017.
6. A. Navoiy. Favoyid ul-kibar// To‘la asarlar to‘plami. 4-jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013.

TAMADDUN NURI